



КАЗАНСКИЙ НАЦИОНАЛЬНЫЙ
ПЕДАГОГИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ АБАЙ



«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI, MADANIYATI»

MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY KONFERENSIYA

TOSHKENT - 2025

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**«TURKIY XALQLARNING MA'NAVIY
INTEGRATSIYASI: TILI, ADABIYOTI,
MADANIYATI»**

**MAVZUSIDAGI II XALQARO ILMIY-NAZARIY
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

TOSHKENT - 2025



Mazkur ilmiy maqolalar to'plamida «Turkiy xalqlarning ma'naviy integratsiyasi: tili, adabiyoti, madaniyati» II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Maqolalarda turkiy tillarning rivoji va o'zaro o'xshashliklarini, umumiy adabiy merosimizni ilmiy asosda chuqur o'rganish; madaniy aloqalarni zamonaviy texnologiyalar orqali kengaytirish; tarjima va adabiy almashinuv orqali xalqaro miqyosda muloqotni kuchaytirish; raqamli platformalar orqali integratsiyani amalga oshirishga oid fikrlar yoritib berilgan. To'plamdan dunyo bo'yicha taniqli turkiyshunos olimlar, metodistlar, o'qituvchilar hamda ToshDO'TAU iqtidorli talabalarining maqolalari ham o'rin olgan.

To'plam til va adabiyot ta'limi bilan shug'ullanuvchi professor-o'qituvchilar, shu sohaning tadqiqotchilari, magistrant va talabalarga mo'ljallangan.

Taqrizchilar:

G.Asilova – *pedagogika fanlari doktori (DSc), professor.*

G.Norimova – *filologiya fanlari nomzodi, dotsent.*

Tahrir hay'ati:

S.Muhamedova, S.Qambarova, O.Turaqulova,
Y.Shirnova, M.Yo'ldosheva.

Mazkur to'plam matni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Kengashining 2025-yil 2-iyundagi 10-sonli majlisida muhokama qilinib, nashrga tavsiya qilingan.

Izoh: Maqolalarning ilmiy saviyasi uchun mualliflar o'zlari mas'uldirlar.



DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/KMSA6591

AHMAD A'ZAMNING "RO'YO YOXUD G'ULISTONGA SAFAR" ASARIDA
INTERYER TASVIRI

Ubaydullayeva Rayxon Abdujalil qizi

*Guliston davlat pedagogika instituti**O'zbek tili va tillarni o'qitish kafedrasi o'qituvchisi**rayhon121274@gmail.com**ORCID: 0009-0001-3993-5378*

Annotatsiya: Ushbu tadqiqotda adabiy asarlarda interyer tasviri, ya'ni qahramonning yashash muhiti va uning ichki ruhiy holatini aniq qilishga yordam beruvchi badiiy vositalar roli o'rganilgan. Interyer tasviri, dekorativ vosita sifatida emas, balki qahramonning ichki dunyosini, unga ta'sir ko'rsatgan ijtimoiy muhitni ifodalashga xizmat qiladi. Maxsus ushbu tadqiqotda Ahmad Azamning "Ro'yo yoki G'ulistonga safar" asari misolida interyerining ramziy ma'nosi, shuningdek, uning personajlar xarakteri va muallifning g'oyaviy pozitsiyasini ko'rsatishdagi ahamiyati muhokama qilingan. Tadqiqotda interyer va uning ramziy belgilarining adabiy kontekstda qanday ishlatilishi, ularning asarning umumiy mazmuni va falsafiy g'oyasi bilan bog'liqligi yoritilgan. Badiiy yozishda interyerining ahamiyati va uning odamning ichki holati bilan bog'lanishi ko'rsatilgan, bu orqali muallif insonning ichki izlanishlarini, yakkalik va umidsizlik kabi his-tuyg'ularini izohlaydi.

Kalit so'zlar: interyer tasviri, adabiy asar, qahramon, psixologiya, ramziy ma'no, Ahmad A'zam, badiiy kontekst, g'oya, "Ro'yo yoki G'ulistonga safar", muhit, inson ruhiyati.

Аннотация: В данном исследовании изучалась роль образа интерьера в литературных произведениях, то есть среды обитания героя и художественных средств, помогающих прояснить его внутреннее душевное состояние. Изображение интерьера, а не как декоративное средство, служит для выражения внутреннего мира героя, социальной среды, оказавшей на него влияние. Специально в этом исследовании на примере работы Ахмада Аъзама "Сон или путешествие в страну цепей" обсуждалось символическое значение интерьера, а также его значение для обозначения характера персонажей и идейной позиции автора. Исследование проливает свет на то, как интерьер и его символические символы используются в литературном контексте, как они связаны с общим содержанием и философской идеей произведения. Художественное письмо показывает важность интерьера и его связь с внутренним состоянием человека, с помощью которого автор интерпретирует внутренние человеческие поиски, такие как одиночество и разочарование.

Ключевые слова: изображение интерьера, литературное произведение, герой, психология, символизм, Ахмад Аъзам, художественный контекст, идея, "Сон или путешествие в страну цепей", окружающая среда, человеческая психика.

Abstract: This study examined the role of the interior image in literary works, that is, the habitat of the hero and artistic means that help clarify his inner state of mind. The image of the interior, rather than as a decorative tool, serves to express the inner world of the hero, the social environment that influenced him. Specifically in this study, using the example of Ahmad Azam's work "A Dream or a journey to the land of Chains", the symbolic meaning of the interior was discussed, as well as its significance for denoting the character of the characters and the ideological position of the author. The study sheds light on how the interior and its symbolic symbols are used in a literary context, how they relate to the overall content and philosophical idea of the work. Artistic writing shows the importance of the interior and its connection with the inner state of a person, through which the author interprets inner human searches such as loneliness and disappointment.



Keywords: interior image, literary work, hero, psychology, symbolism, Ahmad Azam, artistic context, idea, "Dream or journey to the land of chains", environment, human psyche.

Adabiy asarda inson ichki kechinmalari, ruhiy olami va hayotga bo'lgan munosabati turli badiiy vositalar orqali ochib beriladi. Shunday vositalardan biri – **interyer tasviri**, ya'ni qahramon yashaydigan yoki harakat qiladigan muhit ichki ko'rinishining tasviridir. Bu usul yozuvchiga qahramon xarakterini yanada chuqur ochishga, muayyan ijtimoiy-tarixiy davr ruhi yoki g'oyaviy-estetik nuqtayi nazarni ifodalashga imkon beradi. Interyer tasviri adabiy asarda faqat dekorativ rol o'ynamaydi. U personajning ruhiy holatini, ijtimoiy mavqeini, dunyoqarashini anglatuvchi ramziy vositaga aylanishi mumkin. Ko'plab zamonaviy asarlarda interyer unsurlari ramziy ma'no kasb etadi. Masalan, qora devorlar – g'am va iztirobni, oynalar – ruhiy ochiqlik yoki o'zini anglashni, chang bosgan mebellar – unutilgan xotiralarni ifodalashi mumkin. Bunday holatlarda interyer qahramon kechinmalarining ichki kartinasiga aylanadi. Interyer tasviri badiiy asarda faqat fon sifatida emas, balki kompozitsion, psixologik va semantik yuk ko'taruvchi muhim badiiy komponentdir. Yozuvchi bu vosita orqali qahramon xarakteri, jamiyatdagi o'rni, muallifning g'oyaviy-estetik pozitsiyasini ko'rsatadi. Shuning uchun interyer tasvirini tahlil qilish – asarning ichki qatlamlarini anglash sari yo'l ochadi. "Yuqoridagi nazariy qarashlarga tayangan holda tadqiqotda badiiy kompozitsiyaning munozarali fikrlarga boyligi asoslangan. Shuningdek, tadqiqotda bir guruh o'zbek adabiyotshunoslarining nazariy qaydlarida kompozitsion unsurlarni belgilash borasidagi qarashlari turlicha ekanligi kuzatilgan. Masalan, Izzat Sultonning "Adabiyot nazariyasi"⁸ darsligida peyzaj va badiiy portret asar syujetining unsuri sifatida tahlil qilingan bo'lsa, T.Boboyevning "Adabiyotshunoslik asoslari"⁹ kitobida asar kompozitsiyasi unsurlari qatorida o'rganilgan. Bizningcha, hikoya kompozitsiyasini tashkil qilishda quyidagilar birlamchi badiiy funktsiya bajaradi: ...sarlavha, epigrafi, lirik chekinish, qistirma kompozitsiyasining "libos"i sanaladi¹⁰". Albatta, ushbu fikrga qo'shilgan holda shuni aytishimiz mumkinki, badiiy asar kompozitsiyasi – bu faqatgina voqealar ketma-ketligi yoki syujetga xos bo'lgan elementlar yig'indisi emas, balki asarning ichki tuzilishi, g'oyaviy-badiiy yaxlitligini ta'minlovchi muhim tizimdir. Shu ma'noda, sarlavha, epigrafi, lirik chekinish va qistirma kabi unsurlar asarning tashqi bezagi emas, balki uning ma'no qatlamlarini ochuvchi, muallif pozitsiyasini ifodalovchi, o'quvchi idrokiga yo'naltiruvchi **funksional-badiiy komponentlar** sanaladi. T.Boboyevning "Adabiyotshunoslik asoslari" darsligida shunday ma'lumotlar keltirilgan: "Uy-joy, jihoz, buyumlar tasviri. Adabiy asarda ishtirok etuvchi shaxslar bevosita harakat qiladigan maydon — uy-joy tasviri ham muhim g'oyaviy-kompozitsion vazifani o'taydi. Uy-joy tasviri, xuddi tabiat

⁸ Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – Б.124.

⁹ Бобоев Т. Адабиётшunoslik asoslari. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.138.

¹⁰ Ҳамраев К. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси. Фил. фан. фал. док. дисс. автореф. –Тошкент. 2018.



manzaralaridek, asarning umumiy g'oyaviy mazmunini yoki uning ayrim jihatlarini kengaytirishga va chuqurlashtirishga; qahramonlarni konkretlashtirishga, ularga tabiiylik, jonlilik, haqqoniylik baxsh etishga ko'maklashadi"¹¹. Ahmad A'zamning **"Ro'yo yoxud G'ulistonga safar"** asarida **interyer tasviri** (ya'ni ichki muhit, xona, yashash joyi tasviri) badiiy ifoda vositasi sifatida muhim estetik va ma'naviy yuklamaga ega. Muallif interyer detallarini faqat tasviriy maqsadda emas, balki obrazning ichki holatini, ruhiy kechinmalarini ochishda, asar muhitini yaratishda ustalik bilan qo'llaydi. **Obrazni ochish vositasi sifatida:** asardagi ayrim qahramonlarning yashash joyi, undagi tartib, buyumlar joylashuvi ularning dunyoqarashi, estetik didi va ruhiy holatlarini ifoda etadi. **Vaqt va makon hissi yaratishda** interyer orqali muallif o'quvchini aynan o'sha davrga, o'sha makonga olib kiradi. Masalan, qadimiy, g'arbona yoki milliy uslubdagi bezaklar, buyumlar – asarda aks etgan ijtimoiy muhit, zamonaviylik va an'anaviylik orasidagi tafovutlarni aks ettiradi. **Ramziy ma'no yuklovchi vosita sifatida yoki** ba'zi hollarda interyer detallari bevosita ramziy ma'noga ega bo'ladi. Eshiklar, derazalar, kitob javonlari, chang bosgan buyumlar orqali muallif umid, yolg'izlik, unutish yoki iztirob kayfiyatini kuchaytiradi. Bu orqali asarning falsafiy qatlamlari boyiydi.

Ahmad A'zamning **"Ro'yo yoxud G'ulistonga safar"** asarida interyer tasviri realizm va psixologizm ruhida berilgan. Bu tasvirlar oddiy dekorativ vazifani emas, balki **badiiy kontekstni boyituvchi, obraz va g'oya xizmatida turgan vosita** sifatida e'tiborni tortadi.

Asarda hikoyachi qahramon uyqusidan uyg'ongach, boshidan o'tgan voqealarni tahlil qiladi. Asar oxirida muallif xulosa chiqarib, jamiyatni yaxshilash va o'zgarishlarga chaqiradi. Asar allegorik va satirik uslubda yozilgan. G'uliston bog'i –antiutopik jamiyat timsoli sifatida talqin qilinadi. Voqea tasvirlarida tush va haqiqat uyg'unlashib, yozuvchi o'zining falsafiy qarashlarini ifoda etgan. Asarning mavzusi va g'oyasi jamiyatning ijtimoiy va axloqiy muammolarini ochib berishdan iborat. G'oyasi insonlarni axloqiy poklanishga, adolatli va bilimli bo'lishga undashdan iborat. Yozuvchi jamiyatni isloh qilish uchun insonlarning ichki dunyosini o'zgartirish lozimligini uqtiradi. "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" asari o'zining tuzilishi va g'oyaviy yo'nalishi bilan o'zbek adabiyotida muhim ahamiyatga ega. Unda Ahmad A'zam jamiyat muammolarini ochiq-oydin tasvirlab, o'z davrining ilg'or adabiy yo'nalishlarini qo'llagan. Asarning tuzilishi tush motivi asosida qurilgani uning badiiy qiymatini oshiradi va o'quvchini chuqur mulohazaga chorlaydi. Shuningdek, asar kompozitsiyasida muhim o'rin tutuvchi yana bir jihat bu – dialog va monologlarning o'zaro uyg'unligi. Dialoglar orqali muallif qahramonlarning ichki kechinmalarini yoritib bergan bo'lsa, monologlar orqali ularning ruhiy o'zgarishlari va falsafiy izlanishlarini ifodalagan. Bularning barchasi asar kompozitsiyasini boyitib, o'quvchiga muallifning fikrlarini teranroq tushunishga yordam beradi. Demak, "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" asari nafaqat badiiy jihatdan, balki falsafiy va ma'naviy

¹¹ Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б.138.



mazmuni bilan ham o'z o'quvchisini o'ylashga, izlanishga va hayotning asl mohiyatini anglashga undovchi noyob asardir. Asar kompozitsiyasi esa bu g'oyalarni o'ziga xos shaklda ifodalashda muhim rol o'ynaydi.

Asarda interyer, ya'ni atrof-muhit, shahar ko'rinishi, uylar, ko'chalar, odamlar orasidagi holatlarning tasviri juda muhim o'rin tutadi. Bu tasvirlar oddiy bezak emas, **asar g'oyasini, muallifning fikrini chuqurroq tushunishga yordam beradigan vosita** hisoblanadi.

Baland-baland oshyonali payvast imoratlari uzoqdan ko'rinib turgan shaharga yetib bordik. Shahar, bizning shaharlarga o'xshab, avval javonibdagi olмали hovlilardan, darvozalarining oldidagi chavra to'siqlari, gulzoru ishkamlari, ulashgan bir qavatli, boloxonali uylardan, keyin ikki oshyonali imoratlardan boshlandi, oshyonalari ko'tarilishi barobarida ko'chalarida g'uliy odami qalinlashib, avtolari gavjumlashib bordi. Ha, shahar tashidan bizning shaharlardan farq qilmaydi, uylarning ayvonlarida osib qo'yilgan kirlaridan tortib, ko'chalarning tepasida bulutdek turib qolgan ko'kimtir tutun g'uborigacha ko'z o'rganib qolgan manzara, tramvay, trolleybus, avtobuslari bizdagidek tirband, daraxtlari daraxt, faqat olmasi bisyor, osmoni shu osmon, gullari o'sha-o'sha ko'z o'rgangan gunogun ranglar, lekin hamma katta-kichik shaharlarga xos turli-tuman shiorlar, suratlar, plakatlar, e'lonlar, afishalar, chaqiriqlar, xullaski, inson zotining o'qishyozishni o'rganganidan keyin yaralgan neki bo'lsa, hammasi boshqa, umuman bu yerdagilar ham qoshu ko'zi bizni aynan takrorlagani bilan, bari, yettidan yetmish yasharigacha hamma-hammasi zanjir osgan, chorrahalarda mashinaning zich yopilgan oynalaridan silqib kirgan shildir-shildir jiring tovushi ham bu erning mutloq bir boshqa makon, yashash qonunlari ham biznikiga mutloq o'xshamasligini urg'ulab turar, ko'zimga ko'rinish berayotgan narsalarning barchasini aqlimga sig'dirolmay, mashina ichida o'zim ham ishtirok etayotgan xayoliy kinoni berilib tomosha qilib borayotgan edim¹².

Shahar manzarasi – hikoyachi qahramonning ichki holat aks sadosi desak mubolag'a qilmaymiz. Parchada yozilganidek, shahar baland uylar, tutunli ko'chalar, shiorlar, e'lonlar bilan to'la. Bu tasvirlar orqali muallif jamiyatdagi sun'iylik, odamlarning bir xil bo'lib qolishi, hayotning mexanik, zerikarli tus olganini ko'rsatadi. Ya'ni bu manzara orqali inson o'zini o'zgacha makonda emas, balki o'zligidan uzoqlashgan, begona muhitda his qiladi. Bu holat asar g'oyasiga mos ravishda haqiqat va xayol orasidagi chalkashlik, o'zlikni yo'qotish, begonalik kabi tushunchalarni ifodalaydi. Uylarning kirga to'la ayvonlari, ko'chalardagi tutun, odamlarning ko'pligi, plakatlar – bularning hammasi muallifning tanqidiy munosabatini bildiradi. Aslida esa bu oddiy detallar emas, balki odamning ichki siqilishi, erkin fikrning yo'qligi, soxta hayot tarziga nisbatan norozilikni bildiruvchi belgilar sifatida ishlatilgan. Muallif oxirida o'zini "xayoliy kinoni tomosha qilayotgan" deb tasvirlaydi. Bu orqali o'quvchi ham xuddi yozuvchidek o'zini tush va haqiqat orasida qolgandek his

¹² A.A'zam. Ro'yo yoxud G'ulistonga safar. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2011. – B. 299.



qiladi. Bu esa butun asarning asosiy g'oyasini – insonning o'zligini qidirishi, yolg'izlik, ruhiy izlanishni ochib beradi.

Ancha yurdik, chamamda shaharning markazini kesib o'tdik, ko'kimtir devor bo'ylab borib zang berdik, chiroyli zanjirgulchin temir darvoza yonboshga surildi. Ikki tomoni olmazor keng xiyobonga kirdik. Odam bir begona joyga borsa, ungacha ko'rmagan narsalariga e'tibor qiladi shekilli, yo'lakning ikki chetidagi chavra to'siq zanjir shaklida shunaqa chiroyli qaychilangan ediki, beixtiyor: «Qoyil! Bog'bonning qo'li gul ekan», deb yubordim. Xoldori ochilibroq jilmaydida: «Hali shoshmang, bunaqa narsalarni ko'p ko'rasiz. Hammasi oldinda!», dedi. Bir baland imorat oldida mashinadan tushdik. Rahbarlar hordiq chiqaradigan ma'vo shekilli, hammayoq orasta, zinapoyalariga cho'g'dek gilam to'shalgan. Umuman, bizning ilgarigi obkom dachalariga o'xshab ketadi. Faqat farqi, nimaga e'tibor qilmay, gilamning gullarimi, zinapoya tutqichlarimi, devordagi ganchning naqshlarimi, ishqilib, hammasida u yoki bu shaklda zanjir ramzi bor. Oynavand eshikni bir qiz ochdi, bejirim zanjir taqqan, qimirlaganda kumush qo'ng'iroqdek jiringlaydi, peshbandida ham zanjir rasmi bosilgan, lekin chiroyli, matoga chizilgan bo'lsa-da, boyagi kumush jarang shulardan ham kelayotganga o'xshaydi¹³.

Parchada muallif ilgari hech ko'rmagan go'zallikni ko'radi: ganch naqshlar, gulli gilamlar, chavralar, bejirim darvozalar va hatto zanjir shaklidagi to'siqlar. Bu tashqi jihatdan chiroyli bo'lsa-da, har bir bezakda **zanjir** ramzi takror-takror uchraydi. Bu esa shunchaki dekor emas, **ramziy ma'no** kasb etadi – **erkinlikni cheklovchi kuch, ruhiy va ijtimoiy qamov belgisi**. Zanjir har :m ham faqat temirdan emas – u ba'zida bezak bo'ladi, ammo u ham kishini mahkamlab qo'yadi. Chiroyli bog'lar, orasta zinapoyalar, ilgari obkom dachasini eslatuvchi imoratlar – bular hammasi muallifga sovet davrining tashqi yasama “go'zalligi”ni eslatadi. **Tashqi hasham orqasida erkinlik yo'q**, go'yoki bu joylarda hammasi chiroyli, tartibli, ammo aslida odamlar **ruhiy siquv ostida**. Zanjir detalining takror-takror qo'llanishi – **inson hayoti, jamiyat tartibi va ruhiyatining butunlay bir tizimga bo'ysuntirilganini** anglatadi. Har qanday chiroyli detalda ham kishini biror narsa cheklayotgani seziladi. Bu – muallifning **o'zini erkin his qilmasligi**, ruhiy bosimni sezishi, hatto **go'zallik ortida yashiringan zulmni** anglashiga olib keladi.

Yana bir interyer tasviriga e'tiborimizni qaratsak:

Meni uchinchi qavatga boshlab chiqdilar. Bir o'ymakor, ya'ni zanjir naqshi kesib solingan eshikni ochdilarki, sizni charchatmaslik uchun qayerda zanjir rasmi yo shaklini kovrsam hammasini aytavermay, bari bir, sanab ham adog'iga yetolmayman, xullas, G'ulistonning nomiga yarasha, hamma yoqda g'ul asari bor, ha, haligi eshikdan ichkari kirdik. Juda muhtasham, mehmonning o'z mehmonlarini kutishi uchun bir xona, dam olishiga xona, bu yoqda haligi yana kerak bo'ladigan bo'lmalar. Divan, yumshoqkursilar, dasturxon yasog'li kattakon maso, burchakda televizor, derazalarga og'ir pardalar osilgan, yarqiragan parket

¹³ A..A'zam. Ro'yo yoxud G'ulistonga safar. – T.: Yangi asr avlodi, 2011. – B. 299.



*polning o'rtasida juda chiroyli gilam to'shalgan. Parket, aytmasam bo'lmaydi, yerga to'shalgan zanjir shaklida juda chiroyli terilgan, lokida gard yo'q. Ustida yurganda oyog'ingizga o'ralib erkanayotgandek*¹⁴.

Bu sahnada muallif uchinchi qavatga chiqib, yana **go'zal, zamonaviy, muhtasham** interyerga duch keladi: o'ymakor eshik, yumshoq mebellar, pardalar, gilam, parket... Bular odatda **qulaylik va osoyishtalik** belgisi hisoblanadi. Ammo bu chiroyli manzarani bir **:miy va kuchli ramz — zanjir** buzib turadi. Muallif hatto "sanab adog'iga yetolmayman" deydi – bu zanjir naqshlarining haddan tashqari ko'pligini anglatadi. Ular ostonadan tortib gilamga, hatto parket polgacha joylashtirilgan. Bu esa odamni xonada emas, go'yo **sokin, zamonaviy ko'rinishdagi panjara ortida** yurgandek his qildiradi. Ya'ni bu yer shunchaki mehmonxona emas, bu – tashqi hasham bilan yopilgan, ichki ruhiy erkinlikdan mahrum qilingan "qafas"dir.

Muallif gilam va parket haqida to'xtalar ekan, parketni "oyog'ingizga o'ralib erkanayotgandek",– deya ta'riflaydi. Bu – interyerning **inson ongiga nafis, ammo bosimli ta'sirini** anglatadi. Ya'ni zanjir bu yerda kuch bilan emas, **go'zallik, qulaylik, hatto mehmondo'stlik ko'rinishida** keltirilgan. Bu xona odatdagi mehmonxonaga o'xshaydi, lekin muallif undagi detallar orqali **ichki ziddiyatni** ko'rsatadi. U tashqi go'zallikdan bahra oladi, lekin **har bir bezak ortida zanjir shaklini ko'radi**. Ushbu holat uni o'zini **ruhiy jihatdan erkinsiz, tazyiq ostida** his qilishiga olib keladi. Asardagi asosiy g'oya – **insonning ongini nazorat qilish, uni befarq va itoatkor holda ushlab turish tizimini** ramziy ravishda ochadi. Shunday qilib, **interyer tasviri** bu asarda oddiy muhit emas, balki **inson ruhiy holatini ko'rsatadigan ramziy vosita**dir. Muallif atrofdagi manzaralar orqali **jamiyatdagi muammolar, insonning o'zligini yo'qotishi, ruhiy bo'shliq** kabi falsafiy mavzularni ochadi.

Ahmad A'zamning "Ro'yo yoxud G'ulistonga safar" asaridagi interyer tasviri asarning umumiy ma'no va mazmunini chuqurlashtirishda muhim rol o'ynaydi. Muallif interyer detallarini obrazlarni rivojlantirish, ularning ruhiy holatini aks ettirish va asar atmosferasini yaratishda samarali vosita sifatida ishlatadi. Har bir kichik detali – xonadagi buyumlar, devordagi suratlar, eshiklar, derazalar – qahramonlarning ichki dunyosini, hayotga munosabatini, o'tmishdagi kechinmalarini va hozirgi ruhiy holatini jonli va ta'sirchan tarzda tasvirlaydi. Shunday qilib, interyer tasviri faqatgina badiiy bezak yoki dekoratsiya emas, balki g'oyaviy va psixologik qatlamlarni ochish, o'quvchiga qahramonlarning ichki kechinmalarini yetkazishning muhim vositasi hisoblanadi. Ahmad A'zam bu tasvirni mahorat bilan ishlatib, asarning mazmunini boyitadi va o'quvchiga har bir detal orqali qahramonlar dunyosini chuqurroq anglash imkoniyatini yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Султон И. Адабиёт назарияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 2005. – Б.124.
2. Бобоев Т. Адабиётшунослик асослари. – Тошкент: Ўзбекистон, 2002. – Б. 138.

¹⁴ A..A'zam. Ro'yo yoxud G'ulistonga safar. – T.: Yangi asr avlodi, 2011. – B. 299.



3. Ҳамраев К. Ҳозирги ўзбек ҳикоясида композиция поэтикаси. Фил. фан. фал. док. дисс. автореф. – Тошкент. 2018.
4. А.А'zam. Ro'yo yoxud G'ulistonga safar. – Т.: Yangi asr avlodi, 2011. – В. 299.

DOI: 10.52773/tsuull.conf.2025/AZZF3709

**"AZƏRBAYCAN OĞLU ÖZBƏK ŞAİRİ" MAQSUD ŞEYXZADƏ YARADICILIĞINA
NƏZƏR**

Sayalı Cəfərova

Türkoloji mərkəz, mütəxəssis

Azərbaycan dövlət Pedaqoji Universiteti

saya.jafarova@mail.ru

Orcid:0009-0003-7052-8097

(994) 55 455 35 31

Xülasə

Əslən Azərbaycandan olan Maqşud Şeyxzadə XX əsr özbək mədəniyyəti tarixində həm şair, həm dramaturq, həm də ədəbiyyatşünas və dilşünas ailm, dünya klassiklərinin əsərlərini özbək dilinə çevirən mütərcim, folklorşünas və publisist kimi tanınmışdır. 1928-ci ildə imperiya ideoloqlarının əmri ilə üç illiyə Qafqazdan sürgün olunur. O Sovet hakimiyyətinin tərəfdarı və təbliğatçısı olmamışdır. Elə buna görə də gənc şair 1928-ci ildə Dağıstandan Özbəkistanın Daşkənd şəhərinə göndərilir. Onun bu şəhərdə həyatının tamamilə yeni dövrü başlayır. Tezliklə özbək dilinin sirlərinə bələd olan M.Şeyxzadə 1928-ci ildən mütəmadi olaraq özbək dilində yazdığı şeir və məqalələrlə mətbuatda görünməyə başlayır. XX əsr özbək ədəbiyyatının klassiklərinə çevriləcək sənətkarlarla bir sırada çalışır və öz layiqli yerini tutur. Maqşud Şeyxzadə poeziyası ülvə məhəbbət, insani münasibətlər, dostluq telləri, nəsihətamiz duyğular, ali hisslər üstündə yaranıb. Şeirləri sadə və eyni zamanda dərin mənalı olmaqla yanaşı, həm də cəmiyyətin, insanın və təbiətin müxtəlif aspektlərini özündə əks etdirir. Maqşud Şeyxzadənin poeziyası, əsasən həyatın müxtəlif çətinlikləri, insanın daxili mübarizəsi, təbiət və vətən sevgisi ilə bağlıdır. Şairin əsərlərində, insanın və cəmiyyətin mənəvi aləmi əsas mövzulardan biridir. Onun şeirlərində ən çox qarşılaşılan motivlərdən biri insanın öz daxili dünyası ilə mübarizəsidir. Həmçinin, Şeyxzadə təbiətə olan xüsusi sevgisini və onu insanın həyatındakı yeri barədə düşündürən fikirlərini də əsərlərində geniş şəkildə ifadə edib.

Açar sözlər: özbək, şair, Sovet, şeir, alim.

Annotatsiya

Ozərbaycanda tug'ilgan Maqşud Şayxzoda 20-asr o'zbek madaniyati tarixida shoir, dramaturg, adabiyotshunos va tilshunos, jahon klassikasining o'zbek tiliga tarjimoni, folklorshunos va publistsist sifatida tanilgan. 1928 yilda imperator mafkurachilarining buyrug'i bilan u Kavkazdan uch yilga surgun qilindi. U sovet hukumatining tarafdori va targ'ibotchisi emas edi. Shuning uchun 1928 yilda yosh shoir Dog'istondan O'zbekistonning Toshkent shahriga jo'natildi. Bu shaharda uning hayotining mutlaqo yangi davri boshlanadi. Ko'p o'tmay, o'zbek tili sirlarini yaxshi bilgan M. Shayxzoda 1928 yildan boshlab o'zbek tilida yozilgan she'r va maqolalari bilan muntazam ravishda bosma nashrlarda chiqqa boshladi. U 20-asr o'zbek adabiyoti klassikasi bo'ladigan san'atkorlar bilan birga ijod qilib, munosib o'rin egallaydi. Maksud Shayxzoda she'riyati yuksak muhabbat, insoniy munosabatlar, do'stlik va yuksak tuyg'ular fonida paydo bo'lgan. Uning she'rlari nafaqat sodda va ayni paytda chuqur mazmunli, balki jamiyat, inson va tabiatning turli qirralarini aks ettiradi. Maqşud Şayxzoda she'riyati asosan hayotdagi turli qiyinchiliklar, insonning ichki kurashi, tabiat va Vatanga



MUNDARIJA

Hüseynova Mahirə Nağı qızı. AZƏRBAYCAN VƏ ÖZBƏK DİLLƏRİNDƏ HİDRONİMİK VAHİDLƏRİN MÜQAYİSƏLİ-LİNQVİSTİK TƏHLİLİ	5
Зулпукаров Капар, Талипова Сахида Эргешбаевна. ОБ ОДНОМ ПОДХОДЕ К СРАВНИТЕЛЬНОЙ ХАРАКТЕРИСТИКЕ ГРАММАТИЧЕСКИХ ФУНКЦИЙ ПАДЕЖНЫХ СУФФИКСОВ В УЗБЕКСКОМ И КЫРГЫЗСКОМ ЯЗЫКАХ	12
Adilbekova Elmira Seytimovna, Сұлтан Саният Бауыржанқызы. ABAY ESERLERİNDE İDEAL İNSAN: AHLÂK, BILGI VE İRFAN EKSENİNDE İNSAN-I KÂMİL	21
Sulton Tulu. "DADA QO'RQUT KITOBİ"NING YANGI TOPILGAN BURSA QO'LYOZMASI	30
Найманбай Айнұр Рахымбердіқызы. АБАЙ ҚҰНАНБАЙҰЛЫ ПОЭЗИЯСЫ ЖӘНЕ ШЫҒЫСТЫҚ САРЫН	37
Самситова Луиза Хамзиновна. ЯЗЫКОВАЯ ПОЛИТИКА И ОБРАЗОВАНИЕ В РЕСПУБЛИКЕ БАШКОРТОСТАН	44
Mirvari İsmayilova Abbas qızı. AZƏRBAYCAN MƏTBƏX MƏDƏNİYYƏTİNİN MİLLİ İDENTİKLİYİ (və yaxud etnokulturoloji səciyyəsi)	52
Mustafa NERKİZ. KAZAK VE ÖZBEK ATASÖZLERİNDEN HAREKETLE KOLEKTİF BİLİNÇ VE BİRLİK KAVRAMI	65
Қ.С.Қалыбаева. ӨЗБЕК ЖӘНЕ ҚАЗАҚ ТІЛДЕРІНДЕГІ ФРАЗЕОЛОГИЗМДЕРДЕГІ ОРТАҚ ТАНЫМ: ЭТНОЛИНГВИСТИКАЛЫҚ САЛЫСТЫРМАЛЫ ТАЛДАУ	74
Mavlonova Klaraxon Mahmudovna. MATN TUZILISHINI BELGILOVCHI KOMPONENTLAR TAHLILI	81
Кобыскан Александр Степанович. ЛЕТНИЕ ЛАГЕРЯ КАК ПРОСТРАНСТВО ЭТНОЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ СОЦИАЛИЗАЦИИ ДЕТЕЙ: ОПЫТ БАШКОРТОСТАНА	87
Kambarova Saodat Irkinovna. O'QUVCHILARNING OBRAZLI TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISHGA DOIR YONDASHUVLAR	95
I SHU'BA. TURKIY XALQLAR ADABIYOTI VA XALQ OG'ZAKI IJODI MASALALARI	
Ubaydullayeva Rayxon Abdujalil qizi. AHMAD A'ZAMNING "RO'YO YOXUD G'ULISTONGA SAFAR" ASARIDA INTERYER TASVIRI	101
Sayali Safarova. "AZƏRBAYCAN OĞLU ÖZBƏK ŞAİRİ" MAQSUD ŞEYXZADƏ YARADICILIĞINA NƏZƏR	107
Маметова Дильфуза Алимовна, Алтынбекова Ақерке Ерболатқызы. TÜRK HALK GELENEĞİNDE HOCA NASREDDİN: MİZAHIN VE HİKMETİN SİMGESİ	113
Адилбекова Эльмира Сейтимовна, Берікқызы Сая. TÜRK DESTAN ÇALIŞMALARI VE EPIK GELENEKLERİ HAKKINDA BAZI	123

